


ISSN 2010-5460

MAKTAB VA HAYOT

ILMIY-METODIK JURNAL

Maxsus son № 2





O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

AVTOMOBILLARNI TA'MIRLASH TEXNIGI

Uning faoliyati avtomobillarni sozlash, zararlangan qismlarni almashtirish va qayta ta'mirlashdan iborat

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Ishtab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, faoliyat sohalari: transport, sanoat xizmati, avtomobil tuzatish mexanigi, avtomashinalarning tuzilishi va buzilish sabablari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak; texnik chizmalar va diagrammalarini o'qiy olishi kerak; avtotransport vositasining turli tarkibiy qismlari bir-biriga qanday ta'sir qilishini tushunish; diagnostika, ta'mirlash, texnik ko'rik jarayonida texnologiyalarini bilish.

avtomobil moyi, maxsus vositalar, boshqa texnik va ta'mirlash uchun ishlatiladigan mahsulotlarni, avusiyatlari va ulardan foydalanish imkoniyatlarini bilishi zarur.



KASB TIPI "ODAM - TEXNIKA"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Avtomobil mexanikasida ko'pincha payvandlash ishlari ham bor. Bu kasbda jarohatlanish xavfi yuqori bo'lganligi uchun o'ta ehtiyotkorlik talab etiladi. Bu jarayonda kuyish, yoriq, chandiq va ko'karishlar sodir bo'lishi mumkin. Shu boisdan avtomobil mexanigidan juda ehtiyotkorlik, ziyraklik talab etiladi.

MUTAXASSISLIKKA QO'YILADIGAN TALABLAR

Maxsus uskunalar yordamida kerakli ta'mirlash ishlarni amalga oshiradi.

Shuningdek:

- yaxshi jismoniy sog'liq;
- aqliy balans;
- stressga chidamli bo'lish qobiliyati;
- aniqlik;
- javobgarlik;
- tahlil qilish qobiliyati ham juda zarurdir.



KASB EGALLASH YO'LLARI

Asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida olish mumkin

QO'LLANISH SOHASI

- avtotransport korxonalari;
- transport ustaxonalari;
- o'quv markaz va majmualari;
- servis stansiyalari va avtomashinalar boshqaruvi;

TIBBIY MONELIK

Tayanch-harakat tizimi kasalliklari, bo'yoc va eritmalarga allergik kasalliklar, ko'rish va eshitish organlari qobiliyatini pastligi



KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1-bosqich -shogird
- 2-bosqich -ta'mirlash ustasi
- 3-bosqich - o'liy toifali usta;
- 4-bosqich- tadbir-kor

TURDOSH KASBLAR

Aloqador sohalarni ixtisoslashtirish va rivojlantirish, vaqt o'tishi bilan tobora murakkab va keng ko'lami ishlarni bajarish bilan, tegishli kasblar doirasida yangi mutaxassisliklarni o'zlashtirish mumkin.



facebook.com/tashxismarkazi
t.me/hayotgaqoqshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkazi

MUNDARIJA

BOSH MUHARRIR

Liliya Gaynutdinova

TAHRIR HAY'ATI

Amanjol AYAPOV
Boris BLYAXER
Baxodir SOBIROV
Risboy JO'RAYEV
Sevara ZUPARXODJAYEVA
Lola MO'MINOVA
Vahobjon RAJPOV
Nargiza RAXMONQULOVA
Sherzod SHERMATOV
Shavkat SHARIPOV

Mas'ul kotib

Sayyora Alimxodjayeva

Adabiy muharrir

Sayyora Alimxodjayeva

Kompyuterda terish va dizayn

Mirtohir Xoliqov

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz qilinmaydi.

Mualliflarning familiyasi, ismi, sharifi ularning pasportlari ma'lumotlariga muvofiq holda yoziladi.

Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

Фамилия и инициалы авторов пишутся согласно данным их паспорта.

Muassislar:

O'quvchilarni kasb-hunarga
yo'naltirish va psixologik-pedagogik
respublika tashxis markazi
«MAKTAB VA HAYOT» M.CH.J.

Jurnaldan ko'chirib bosilganda

«MAKTAB VA HAYOT» dan olindi,
deb ko'rsatilishi shart.

Jurnal 2001 yildan
chiqa boshlagan.

MANZIL:

100095, Toshkent sh.,
Olmazor t., Ziyo ko'chasi, 6A uy.
Tel: (0371) 246-21-02
E-mail: maktabvahayot@sarkor.uz

OBUNA INDEKSI - 1019

R.R.Atajanova, R.B.Hojiyev.

Barkamol avlodni tarbiyalash – davr talabi 2

A.M.Shofqorov

Chizmachilik va chizma geometriya fanlarini o'qitish orqali

o'quvchilarning grafik savodxonligini oshirish 3

R.B.Hojiyev, R.R.Atajanova.

Pedagogik ta'limning innovatsion klasteri – ta'lim tizimining renessansi sifatida 4

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini grafikmateriallarda ishlashga o'rgatish orqali ijodiy

kompetensiyalarini rivojlantirish 6

I.O.Jumayev.

Chizmachilik darslarida AutoCAD dasturidan foydalanishning

yutuq va kamchiliklari tahlili 7

U.Sh.Ismatov.

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilariga grafik materiallarda

ishlash texnologiyalarini o'rgatish 8

B.B.Ko'kiyev.

Talabalar emotsional intellektini tadqiq etishning psixologik imkoniyatlari 9

M.J.Maxmudov.

Tasviriy san'atda rahim ahmedovning, "ona o'ylari" asarini o'rgatish orqali

o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish 11

S.T.Sobirov, N.R.Sayfiyeva.

O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalashda tasviriy san'at

fanining va o'qituvchining o'rni 13

X.X.Muratov.

Tasviriy san'at fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish va boshqarishda

"ispring" dasturiy ta'minotining ahamiyati 14

S.T.Sobirov.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi

ba'zi omillar va ularni bartaraf qilish yo'llari 18

S.M.Abduxamidov, A.M.Suyarov.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ta'lim islohotlarining o'rni 20

C.O.Ataxanova, G.A.Chubarova.

Pовышение качества преподавания начертательной геометрии в вузах 22

S.X.Xabibullayev.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sport to'garaklarini tashkil etishning samarali usuli 23

I.Baxriyev.

Oliy ta'limda talabalarni manzara janrida ishlashga o'rgatish va kasbiy tayyorlash 25

B.III.Karapov.

Педагогическая поддержка развития профессиональной компетентности

преподавателя физической культуры 27

X.E.Sultanov.

Ta'lim klasteri orqali o'quv muassasalarining faoliyatini samarali tashkil etish 28

S.M.Abduxamidov.

O'quvchilarda badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish –

dolzarb pedagogik muammo sifatida 30

B.B.Baymetov.

Tasviriy san'atda talabalar ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda individual yondashish 32

T.R.Ankabayev.

Tasviriy va amaliy san'atdan to'garak mashg'ulotlarini tashkil etish jarayonida

o'quvchilarning estetik madaniyatini rivojlantirish 33

X.E.Sultanov, A.I.Vapayev, U.X.Xudoyorova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri amalda: hamkorlikning ilk samaralari 35

X.X.Muratov G.D.Isametova, X.U.Kenjayevo.

O'quvchilarning mustaqil ta'limni tashkil etish mazmuni, metodi va vositalari 36

X.E.Sultanov D.Eshpo'latov, Z.Shavkatova, M.Mamatkarimova.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri o'quv jarayoni va amaliyot uzviyligining asosi 38

T.S.Achilov, I.R.Choriyev.

Pedagogik ta'lim innovatsion klaster yondashuvida maktab-laboratoriya

tajribasining tarmoqlararo o'zaro hamkorligi asos sifatida 39

S.A.Toshtemirova.

Ta'lim va tarbiyaning demokratik hamda insonparvarlik tamoyili 42

A.Yo.Shadiyev.

Jismoniy mashqlar bo'lajak pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlashda muhim vosita sifatida 43



YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI OSHIRISHDA TA'LIM ISLOHOTLARINING O'RNI

S.M.Abduxamidov, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti "Pedagogika va menejment" kafedrasida o'qituvchisi
A.M.Suyarov, mazkur institut o'qituvchisi

В результате развития правовой культуры молодежи идеалом является воспитание человека, способного полностью удовлетворить потребности общества и служить его поддержке в единстве, мире и благополучии.

Ключевые слова и понятия: молодежь, правовая культура, гармоничная личность, общество, потребность.

As a result of the development of the legal culture of young people, the ideal is the upbringing of a person who is able to fully satisfy the needs of society and serve to maintain it in unity, peace and prosperity.

Key words and concepts: youth, legal culture, harmonious personality, society, need.

Bugungi kunda Respublikamizda fan, ta'lim, madaniyat va san'at sohasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Mirziyoyev Shavkat Miromonovich tomonidan 2017 yil 07 fevraldagi F-4947-sonli Farmoniga binoan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha **Harakatlar strategiyasi** qabul qilindi. Mazkur hujjatning 4-qismi "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" bo'lib mazkur hujjatning ramziy belgisida qizil rang bilan ya'ni hayot va aholining munosib turmush-tarzi ni ta'minlash ma'nosini bildirganligi hamda 2019 yilning 19 martida yoshlarga e'tiborni kuchaytirish, ularni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb yetish, ularga axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini singdirish, yoshlar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandleligini oshirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil etishi, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli va foydali o'tkazish maqsadida "**Besh muhim tashabbus**" ni ilgari surdi, besh tashabbusning birinchisi yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodlarini yuzaga chiqarishga xizmat qilishi haqida so'z yuritishi ham bejiz emas.

Yurtimizda ta'lim sohasini takomillashtirish, yoshlarga bo'lgan ye'tibor ularning iste'dodini yuzaga chiqarish, yurt kelajagiga qayg'urgan holda yana bir qancha istiqbolli ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3305-son qarori asosida respublikamizda ilk bor Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil yetildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi PQ-3304-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5313-son Farmoni qabul qilindi. Farmonga muvofiq, 2018/2019 o'quv yilidan boshlab majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim maktablarida, shu jumladan, ixtisoslashtirilgan maktablarda, ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktab-internatlarida, ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internatlarida hamda akademik litseylarda uzluksiz va 11 yillik muddatda; 2019/2020 o'quv yilidan boshlab kasb-hunar kollejlari o'qishga qabul qilish umumta'lim maktablarining 11-sinflari bitiruvchilari hisobidan, ixtiyoriylik asosida, tegishli mutaxassislikka (kasbga) ega bo'lish uchun 6 oydan 2 yilgacha bo'lgan o'qitish muddatlarida amalga oshirilishi belgilab berildi.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktabrdagi "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 868-son qarori qabul qilindi.

2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-2909-son Qarori qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son Farmoni ishlab chiqildi va amaliyotga joriy yetildi, shular qatorida Respublikamizda tarixan juda qisqa, biroq mazmunan asrlarga teng bu yillar davomida xalqimiz milliy taraqqiyot yo'lidan izchil va qat'iyat bilan borib, barcha sinov va mashaqqatlarni

yengib o'tib, olamshumul yutuq va marralarga erishdi.

Mustaqillik yillarida shakllangan yangicha dunyoqarash, yoshlarda qonunlarga hurmat, Vatanga sadoqat, milliy qadriyat va an'analarga muhabbat, o'z yaqinlariga mehribonlik, tanlagan yo'l, kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 60 foizidan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etmoqda.

Bu miqdor boshqa mamlakatlar ko'rsatkichlaridan ikki yarim baravar ko'pdir. O'zbekiston aholisining 40 foizi esa 18 yoshgacha bo'lgan yoshlardir. Mamlakatimizda yoshlarga, ularning faoliyatlariga e'tiborning ortib borayotganligi sababli O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2000 yil "Sog'lom avlod yili", 2008 yili "Yoshlar yili", 2010 yil "Barkamol avlod yili", 2014 yil "Sog'lom bola yili", 2016 yil "Sog'lom ona va bola yili", shuningdek 2017 yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", 2018 yil "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili", 2019 yil "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili", 2020 yil "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb e'lon qilinishi bejizga emas.

Shu o'rinda huquqiy madaniyat tushunchasiga to'xtalib o'tamiz.

Huquqiy madaniyat-shaxsning qonun, davlat tomonidan o'rnatilgan tartib-qoidalarga rioya etishdagi xulqi, munosabatini bildiradi. Huquqiy madaniyat kishi umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Huquqiy madaniyatli bo'lish uchun qonunlarni xulq-atvorida namoyon qilish lozim. Huquqiy madaniyatlilik nafaqat o'z haq-huquqlarini bilish, uni anglab yetish, balki el-yurtga fidoyilik, halollik, o'zgalar huquqini hurmat qilish, Vatanga sadoqat va ezgu ishlarni hayotiy tamoyilga aylantirib olinganligini ham bildiradi. Huquqiy madaniyatga ega bo'lishda huquqiy ongning o'rmi muhimdir.

Huquqiy madaniyat nimalardan tashkil topgan.

Har qanday uy kabi huquqiy madaniyat binosi ham poydevorga tayanadi. Huquqiy madaniyatning poydevoriga quyidagilar kiradi.

- **axloqiy -ma'naviy qarashlar;**

- **e'tiqod-ishonchlar.**

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi manbalardan foydalanish juda katta samara beradi. Bular:

- Buyuk allomalarimizning o'g'itlari;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma'ruzalari;

- O'zbekiston Respublikasi ratifikatsiya qilgan Konventsionalar.

- Fanga oid darsliklar, huquqiy adabiyotlar.

Buyuk donishmand mutafakkirlarimiz o'z davridagi ijtimoiy tuzumning siyosiy-iqtisodiy va ma'naviy asoslari qanday bo'lishidan qat'iy nazar bola tarbiyasi masalasiga birinchi darajali ish deb qaraganlar.

Chunonchi, Baxovuddin Naqshbandiy, Mavlono Jaloliddin Rumi, Ismoil al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Ali Ibn Sino, buyuk sarkarda bobokalonimiz Amir Temur, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy va boshqa allomalar o'z asarlarida axloq, odob, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolat, haqiqat g'oyalarini bayon etishda xalq pedagogikasidan samarali foydalandilar.

Jumladan, Mavlono Jaloliddin Rumiyning (Fih mo fih)



“Ichindagi ichindadir”, Ibn Sinoning “Axloqqa oid risola” asarlarida ta’kidlanishicha, inson ongli suratda harakat qiladi va bu harakat natijasini biladi, ya’ni kelajakni o’ylab faoliyat yuritadi. Ibn Sinoning fikricha, insonning eng yaxshi fazilatlaridan biri-o’zining yomon axloqiy xislatlarini anglab, ularni yo’qotishga intilishdir. Buyuk alloma Ibn Sino «Komillikka yetaklovchi omil sifatida axloqiy tarbiyani ko’rsatgan. Insonlar kamtar, irodasi kuchli, tejamkor bo’lishi zarur. Insonda mehnatga muhabbat, yaxshi axloqiy sifatlar mujassamlashganini bildiradi»-deb ta’kidlagan.

Buyuk alloma Abu Nasr Farobiyning fikricha, inson o’z mohiyati bilan ijtimoiy, ya’ni jamiyatda, o’zaro munosabat, o’zaro yordam jarayonida komil inson bo’lib yetishadi. Farobiyning ta’kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli bo’lishga va shu bilan birga to’g’ri, haqiqatni sevish, jasur, do’stlarga sadoqatli bo’lish kabi fazilatlarining yuksak axloq sohibi bo’lish uchun yo’naltirishi lozim.

Demak, ta’lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi jamiyat talablariga to’la-to’kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal insonni tarbiyalashdir.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir” mavzusidagi ma’ruzasida shunday deb ta’kidlaydi: Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning bu fikrlariga har birimiz, ayniqsa endi hayotga kirib kelayotgan o’g’il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda juda istardim.

Bizning navqiron avlodimiz manfaatlarini ta’minlash borasida faoliyatimiz yaqinda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida” gi qonun asosida qat’iy davom ettiriladi. “Yoshlar ittifoqi” ijtimoiy harakati barcha yoshlarimiz intiladigan, ularning qobiliyati va iqtidorini ro’yobga chiqaradigan va manfaatlarini haqiqiy himoya qiladigan tashkilotga aylanishi uchun barcha choralarini ko’ramiz”- dedi Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev so’zlagan ma’ruzasida.

Shuningdek O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida shunday dedi: “Yoshlar masalasi bizning asosiy vazifamiz. Yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo’rovonlik g’oyasi “virusi” tarqalishining oldini olishdir. Buning uchu yosh avlodni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko’p tomonlama hamkorlikni rivojlantirishimiz lozim deb hisoblashimiz ta’kidlab o’tadi va quyidagi fikrni taklif etdi. “O’zbekiston globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro hujjat-BMTning “Yoshlar huquqlari to’g’risidagi xalqaro konventsiyasi”- ni ishlab chiqishni taklif etadi”. Bu g’oyalari bilan dunyodagi barcha yoshlar masalasidagi vazifalarni qanday yechish bo’yicha muhim ahamiyatli bo’lgan fikrni ilgari surdi.

Yoshlarimizda huquqiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagilarga alohida e’tibor qaratilishi lozimdir:

- Konstitutsiya va mavjud qonunlar bilan yaqindan tanishib borish;
- Qonun ustuvorligini anglash, mamlakatimizda qabul qilinayotgan qator qonun, farmonlar va qarorlarni muntazam o’rganib borish;
- Mahallalarda o’tkazilayotgan tadbir va yig’inlarda ishtirok etish;
- Televidenie va radio orqali huquqqa oid ko’rsatuv va eshittirishlarni muntazam kuzatib borish va hokazo.

Yoshlar o’rtasida huquqiy savodxonlikni oshirish lozim. Buning uchun quyidagi ishlarni yo’lga qo’yish zaruriyatidir:

Birinchiidan: yoshlar ta’limning turli sohalarida ishtirok etishlari bilan o’zlarining bilim darajasini oshirib borishi.

Ikkinchiidan: huquqiy savodxonlik, yoshlar jamiyatning huquqiy va siyosiy hayotida bevosita ishtirok etishidir. Har bir o’quvchi huquqiy munosabatlar, huquqiy mavzularda bo’ladigan suhbatlar, yig’ilishlar, tadbirlarda o’z fikr-mulohazalarini bildiradi. Bunday muloqat va munosabatlar shaxs ongiga ta’sir etib, huquqiy madaniyatning shakllanishi uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi.

Uchinchiidan: yoshlarga huquqiy ta’lim berishda ularning bo’lg’usi mutaxassisligini e’tiborga olish lozim. Ularga imkoiyat darajasida o’z mutaxassisligiga taalluqli bo’lgan huquqiy bilimlarni berish kerak.

Shuningdek, ta’lim tizimi bosqichlarida o’g’il-qizlarimizga, eng kichik yoshidanoq huquqiy tarbiyani singdirib borish lozim. Ayniqsa bog’chalarda ertaklar yordamida, ertak qahramonlarining rolini bolalarning o’zlariga bajartirib, yaxshi va yomon xulqli obrazlarni yoki ota-onasiga, jamiyatda bo’lgan ijobiy yoki salbiy munosabatni aks ettirib, sahna ko’rinishlari orqali, ularda huquq va burch tushunchalarini shakllantirib borish lozim. Huquqiy ta’lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish uchun ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish lozim deb hisoblaymiz.

Ertak filmlar, qo’g’irchoq teatri spektakllari, bolalarga xos huquqiy shoular, “bobo-momolarimizning o’g’itlari” kabi ko’rsatuvlar orqali bolalarimizning ongi va madaniyatiga ezgulik tushunchalarini singdirib borishimiz lozim.

Huquqbuzarlikni keltirib chiqaradigan omillar esa quyidagilar:

1. Bolalarni noto’g’ri tarbiyalash va ularga ota-onalar hamda boshqa katta yoshli shaxslarning salbiy ta’sir ko’rsatishi;
2. Maktablardagi o’quv tarbiyaviy jarayonlardagi kamchiliklar;
3. O’quvchilarning fanlarni o’zlashtira olmaganligi va fan to’garaklariga jalb etilmasliklari;
4. Bolalarning nazoratsiz va qarovsiz qolishi;
5. Bolalarning jamiyatga xilof qilmishlariga kattalarning befarq qarashi;

6. Oila, ta’lim muassasalari, sog’liqni saqlash, mahalla tizimi o’rtasida hamkorlikning yaxshi yo’lga qo’yilmaganligidadir.

Bu holatlarning oldini olish uchun yoshlar qalbida qonunlarga hurmat, sog’lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularni bo’layotgan voqealarga daxldor ekanligini tushuntirib, ularni ongli yashashiga, o’z fikriga ega bo’lishiga, turli tajavvuzkor g’oyalarga qarshi tura olishiga qodir bo’lgan, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga yo’naltirilgan huquqiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institutida “Yoshlar ittifoqi” ma’naviyat-targ’ibot guruhlarini tashkil etilgan bo’lib, doimo huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari va siyosiy partiyalar bilan hamkorlikda “Amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlar nigohida”, “Men murojaatnomani qanday tushundim”, “Ta’lim va yoshlar” va “Yoshlarning bo’sh vaqtini mazmunli tashkil etish” mavzularida maktabgacha ta’lim muassasalari, umumiy o’rta ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik kollejlarda turli xil tadbirlar tashkil etilib borilishi yaxshi samara bermoqda.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ta’lim tizimida yuksak ma’naviyatli yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish orqali:

Birinchiidan, mamlakatimizda demokratik huquqiy davlatning huquqiy asoslari mustahkamlanadi;

Ikkinchiidan, huquqni qo’llash amaliyoti takomillashadi ;

Mamlakatimiz kelajagi yoshlar qo’lida ekan, ular har tomonlama rivojlanayotgan huquqiy demokratik davlatimizni shakllantirishda o’z hissarlarini qo’shadilar, deb ishonamiz. Kecha kim edigu, bugun kim bo’lganligimizni qalban his etib, imkoniyatlardan foydalanib, jamiyatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo’shadi, jahonda davlatimiz nufuzini yanada oshiradi degan xulosaga keldik.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2014 yil “O’zbekiston” nashriyoti.
2. Sh.Mirziyoyev. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” mavzusidagi ma’ruzasi “Ma’rifat” gazetasi.
3. Sh.Mirziyoyev. “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasi” da so’zlagan nutqi.” Ma’rifat” gazetasi.
4. Mavlono Jaloliddin Rumi.(Fih mo fih) Ichindagi ichindadir. – T.: “Yangi asr avlodi”. 2018.
5. Yoshlarning huquqiy madaniyatini shakllantirish” – T.: “O’zbekiston”. 2014 yil, 27-bet.
6. A.Zunnunov, R.Jo’rayev. “O’quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik asoslari”. 2008.”Sharq” nashriyoti. 8-9 betlar.



O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK RESPUBLIKA TASHXIS MARKAZI

BICHUVCHI

Bichuvchi - mavjud qoida, ko'rsatmalarga rioya qilgan holda ma'lum bir chizma asosida andozalar bilan ishlaydi

ISH FAOLIYATINING MAZMUNI VA ISH SHARTI

Xizmat ko'rsatish sohasidagi usta bo'lib, buyurtmalarni libos tuzilishiga asoslanib bichadi.

- mijozdan o'Ichovlarni oladi;
- konstruksiyasini tayyorlab, modellashtadi.
- mato bo'yicha namunaning maketini tadbliq etadi.



MUTAXASSISLIKGA QO'YLADIGAN TALABLAR

Bichish mashinalari uchun umumiy qurilma va qoidalar, bichish ishlarining texnikasi va tashkil etilish qoidalari, usullari, matolarni kesish yo'llari, kompozit qurilishdagi matoning plastik xususiyatlar.

KASBIY O'SISH ISTIQBOLLARI

- 1) bosqich – stajyor;
- 2) bosqich – master.
- 3) bosqich – sex boshlig'i;
- 4) bosqich tadbirkor.



KASB TIPI "ODAM – BADIY OBRAZ"

MUTAXASSISNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI

Qo'l mehnatiga moyilligi, xizmat ko'rsatishga moyilligi, ijodiy faoliyatga moyilligi, aniqlik, qat'iyatlik, sabr-toqat.

KASB EGALLASH YO'LLARI VA QO'LLANISH SOHASI

Kasb-hunar sohasidagi asosiy bilimlarni umumiy o'rta ta'lim va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida hamda kiyimlarni tikish va ta'mirlash ustaxonalarida olishi mumkin;

- fabrikalar;
- xususiy korxonalar;
- ta'lim kombinatlari;
- shuningdek, bichuvchilar o'zlariga tegishli bo'lgan vazifalar va shaxsiy buyurtmalarni bajarishlari mumkin.


TURDOSH KASBLAR

Dizayner - modeler (tikuv, charm buyumlari, poyafzal) modeler - konstruktor, tikuvchilik ishlab chiqarish texnologisi.



TIBBIY MONELIK

- o'tkir oshqozon-ichak kasalliklari;
- allergik kasalliklar;
- tayanch harakat tizimi kasalliklari;
- yurak-qon tomir kasalliklari;
- umurtqa pog'onasi kasalliklari;
- eshitish va ko'rish organlari kasalliklari;
- yuqumli teri kasalliklari;
- yuqori nafas yo'llari kasalliklari.



facebook.com/tashxismark
az1t.me/hayotgaqoshil
www.tashxis.uz
t.me/tashxismarkuzi

COVID-19 BILAN KASALLANISH XAVFINI KAMAYTIRISH



Yo'tal yoki akxa urish paytida og'iz va burningizni bukilgan tirsagingiz bilan berkiting



Qo'llaringizni sovun bilan iloji boricha tez-tez yuving



Yo'talayotgan, isitma yoki nafas qisilishi bor odam bilan kamida 2 metr masofa saqlang



Ko'zlaringiz, burningiz va og'zingizga tegmang

AGAR SIZDA YO'TAL, ISITMA YOKI NAFAS QISILISHI KUZATILSA ZUDLIK BILAN SHIFOKORGA MUROJAAT QILING!